



XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 20 - aprel

VI-68-46-11-160-K/23

Toshloq tumani hokimligi

2023-yil I-chorakda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi “Budget ma’lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2023-yil I-chorakda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b J.Qurbonovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

-2023-yil 1-bosqich “Tashabbusli budjetlashtirish” jarayoni natijalari bo‘yicha ma’lumotlar 1-ilovaga muvofiq;

-2023-yil 1-bosqichda “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi mablag‘larining shakllanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 2-ilovaga muvofiq;

-2023-yil 1-bosqichda “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun

yo‘naltirilgan mablag‘lar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b (J.Qurbonov) va tumandagi barcha tegishli mutasaddilar hamda mahalla fuqarolari yig‘inlari raislariga: tumanda iyul oyida o‘tkaziladigan “Tashabbusli budjetlashtirish” jarayonining 2-bosqichiga jamoatchilikni keng jalb etish bo‘yicha targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

4. Tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b (J.Qurbonov), Toshloq tongi gazetasi muxarriri (M.Nurmatov), tuman hokimligi axborot xizmati (R.Mamajonov)larga:

-Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo‘yicha “Toshloq tongi” gazetasida muntazam ravishda chop etib borish, “Ochiq budjet” axborot portaliga o‘z vaqtida joylashtirib borish, tuman hokimligining rasmiy veb-saytlariga har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorakni birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Djo‘raboyev) yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Djurabayev

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2023 yil 20 apreldagi
VI-68-46-11-160-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa
		(ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	1 746 267.0
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*	5 928 308.0
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**	0.0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	0.0
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	0.0
3.3.	Tashabbusli byudjet jarayonida g'olib deb topilgan takliflarni amalga oshirishdan iqtisod qilib jamg'armaga qaytarilgan mablag'lar	24 097.9
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	7 698 672.9

Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha

(ming.so'm)

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1	Hududiy ichki yo'llar	0	umumiy uzunligi	0	0
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	0	soni	0	0
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	soni	0	0
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	soni	0	0
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	soni	0	0
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	0	umumiy uzunligi	0	0
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish	0	chiroqlar soni	0	0
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish	0	tadbirlar soni	0	0
9	Boshqa tadbirlar	0	soni	0	0
jami		0	X	X	0

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2023 yil 20 apreldagi
VI-68-46-11-160-K/23-son qaroriga
2-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi

(ming.so'm)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh
	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
Tuman (shahar) byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	5 424 308.0				5 424 308.0	0.0	
Tuman (shahar) byudjetining qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	504 000.0	0.0	0.0	0.0	504 000.0	0.0	
Shu jumladan	erkin qoldiq mablag'lari	504 000.0			504 000.0	0.0	
	daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi				0.0	0.0	
	davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar				0.0	0.0	
elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar					0.0	0.0	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-409 qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar					0.0	0.0	
Jami ajratiladigan mablag'lar	5 928 308.0				5 928 308.0	0.0	

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2023 yil 20 apreldagi
VI-68-46-11-160-K/23-son qaroriga
3-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan

(ming.so'm)

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlar soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)							
			onlayn ovozlar	o'flayn ovozlar	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraq	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Iqtisod qilinib, jamg'armaga qaytarilgan mablag'	Qoldiq mablag'lar	
1	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	-	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Jami:								0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0